

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 6/S  
**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/6 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Мамаражабов Бобир Нормўмин ўғли*

САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ  
АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК .....8-17

*Хайдаров Абдулходи Ахмадали ўғли*

XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА  
ТОМОРҚАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ..... 18-22

*Назаров Азизбек Ёқубжонович*

ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК  
ТАҲЛИЛИ ..... 23-31

*Abdulloyev Jamshed Izzatulloevich*

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA  
KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI ..... 32-36

*Пасилов Баҳодир Абдуллаевич*

ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ АЙРИМ  
МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 йй.) ..... 37-41

*Ismailov G'afurjon Xasanovich*

TURKIYADAGI O'ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI "SULTONTEPA TEKKESI"  
MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O'RNI ..... 42-46

*Raxmatulloev Murodjon Xikmatulloevich*

BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA  
OID ISLOHOTLAR ..... 47-50

*Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna*

SHARQ VA G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL ..... 51-55

*Нафиддинова Хосият Равшановна*

БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР  
МАЪЛУМОТЛАР ..... 56-60

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Zhang Hongzhi, Wu Bo*

RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR  
SPREAD ..... 61-66

*Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna*

MINTAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI  
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 67-72

*Nayimov Shoxruh*

PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A  
COMMERCIAL BANK ..... 73-79

*Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich*  
ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC  
DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE  
DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ..... 80-88

*Рахматуллаев Беҳзод Рахматуллаевич*  
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР  
МАСАЛАЛАРИ ..... 89-95

*Abdullayeva Zamira Muxtarovna*  
MEHNAT BOZORI TALABLARIGA OLIY TA'LIM XIZMATLARI MODELLARINI  
MOSLASHTIRISH ..... 96-102

*Имомов Холмурод Норқулович, Шарипов Тўлқин Саидахмедович*  
ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ  
ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ ..... 103-114

*Эргашев Ахмаджон Махмуджон ўғли*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА  
БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 115-122

#### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Imotova Nozimaxon Avazxonovna*  
JAMIYAT FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS IJTIMOY-FALSAFIY  
XUSUSIYATLARI ..... 123-129

*Qodirov Davronbek Hoshimovich*  
ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI ..... 130-133

*Jabborova Saodat Sattorovna*  
SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY SALOHİYATNI YUKSALTIRISHDA QO'SHGAN  
HISSASI ..... 134-142

#### **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Tuxtasinova Mahliyoхon Shavkatjon qizi*  
L.Z.BUDAGOV LUG'ATIDA ESKI O'ZBEKCHA SO'ZLARINING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA  
IZOHLANISHI ..... 143-149

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*  
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDA EKVIVALENTLIK  
MASALASI ..... 150-154

*Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna*  
UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY  
TA'MINOTI ..... 155-160

*Mirzayeva Yelena Sa'dullaevna*  
O'ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH ..... 161-166

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*  
INGLIZ TILIDAGI KO'P MA'NOLI IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

USULLARI .....	167-171
<i>Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna</i> BADIIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalaming "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida) .....	172-176
<i>Hamroqulova Marjona Nabijon qizi</i> "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	177-181
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Zulfikorov Sherzod Xurramovich</i> ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ .....	182-191
<i>Tallibaev Umiddjon Sherгазиевич</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ. ....	192-199
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Iminakhunova Iroda Huseynovna</i> THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES .....	200-206
<i>Usmanaliev Khusniddin</i> INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESS OF A FOREIGN LANGUAGE .....	207-219
<i>Madaminov Uktam Ataxanovich</i> ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI .....	220-224
<i>Yuldasheva Dilfuza Qodirovna</i> TURIZM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH USULLARI .....	225-229
<i>Tohirova Shohsanam Yunusovna</i> THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON- PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	230-236
<i>Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna</i> ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN .....	237-242
<i>Raxmatova Mexrinovna Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATION TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI .....	243-247
<i>Sheraliyev Odiljon</i> TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	248-254

10.00.00-Филология фанлари

**Hamroqulova Marjona Nabijon qizi**

Tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
[marganapendragon7@gmail.com](mailto:marganapendragon7@gmail.com)

### **“MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida qo'llangan frazemalar semantik-uslubiy jihatdan talqin qilingan.

**Kalit so'zlar:** uslubiy ma'no, ekspressiv baho bo'yog'i, funksional-uslubiy bo'yoq, sinonim iboralar.

**Khamrokulova Marjona**

Researcher, Tashkent state University of Uzbek  
Language and Literature named after Alisher Navoi

### **SEMANTIC-STYLE CHARACTERISTICS OF PHRASES IN “MAHBUB UL-QULUB”**

**Abstract.** In this article, the phrases used in Alisher Navoi's "Mahbub ul-Qulub" are interpreted semantically and stylistically.

**Keywords:** stylistic meaning, expressive assessment, functional-methodical side, synonymous expressions.

**Хамракулова Маржона Набижановна**

Исследователь, Ташкентский государственный Университет  
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

### **СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗОВ В “МАХБУБ УЛ-КУЛУБ”**

**Аннотация.** В данной статье фразы, использованные в произведении Алишера Навои «Махбуб уль-Кулуб», трактуются семантически и стилистически.

**Ключевые слова:** методический смысл, экспрессивная краска, функционально-методическая краска, синонимические словосочетания.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N27>

Alisher Navoiy asarlarining tili birmuncha murakkab. Chunki shoir asarlarida arabiy, forsiy til qatlamiga mansub til materiallari, tasavvuf she'riyati g'oyalarini targ'ib qiluvchi majoziy-ramziy obrazlar, istilohlar anchagina. Shunday bo'lsa-da, ulug' shoir ko'proq turkiy so'z va iboralardan unumli foydalandi. Navoiy lirik merosida qo'llanuvchi juda ko'p iboralar borki, ular bugungi kunda ham iste'molda. Navoiyshunosligimizda shoir asarlarida qo'llanilgan



iboralarni o'rganish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Biroq bu sohadagi yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. Navoiy asarlari frazeologik lug'atining yagona namunasi hozircha E.A.Umarov tomonidan yaratilgan. Bu frazeologik lug'at ham alifbo tartibida tuzilgan, iboralar izohi rus tilida berilgan, Alisher Navoiy asarlaridan olingan misollar ham rus tiliga tarjima qilingan. Har bir lug'at maqolachadan so'ng bir necha misollar keltirilgan. Ammo kitob oxirida lug'atdan foydalanishni osonlashtirishga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlar berilmagan. Bundan tashqari, E.Umarovning mazkur asarini Alisher Navoiy lirik poeziyasining mukammal izohli frazeologik lug'atiga debocha deyish mumkin, chunki ayrim iboralar (hatto "Xazoyin-ul-maoniy" da qo'llangan iboralar ham) bu kitobda o'z aksini topmagan. Bunday ish Alisher Navoiy asarlari frazeologiyasini, ko'p asrlik tarixiy frazeologiyani to'plash va tizimlashtirishning ilk tajribasi bo'lgani uchun uni yanada takomillashtirish lozim ko'rinadi. Ko'rinib turibdiki, ulug' shoir asarlaridagi har bir so'z va ibora badiiylikning yuksak namunasi sifatida talqin va tadqiq qilishga ehtiyoj sezadi. *Kulini ko'kka sovurmoq, boshi ko'kka yetmoq, ko'ksini choq qilmoq, yerga urmoq, ko'zi uchmoq, ko'ziga to'tiyo qilmoq, og'zini ochmoq, ko'zidan uyqu qochmoq, qo'ldan bermoq, ko'z yumib-ochmoq, ko'zdan uchar (o'tar), tegirmon toshini aylantirmoq, kechani kecha demay, kunduzni kunduz demayin* kabi qator xalq iboralari shoir asarlari badiiyligini ta'minlagan omillardan biridir.

"Kulini ko'kka sovurmoq" iborasi "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" da "Butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq" ma'nosida qo'llanishi ta'kidlangan [5; 89-b]. Ushbu ibora hazrat Navoiy asarlarida ham xuddi shu ma'noda qo'llangan. Shoir lirik qahramon – oshiq ruhiy holatining mubolag'aviy tasvirida mazkur iboraga murojaat qiladi:

*Ey ishq, yana furqat o'tin jonima urdung,*

*Jismimni kul aylab, **kulini ko'kka sovurdun** [2; 123-b].*

Mazmuni: Ey ishq, ayriliq o'tini jonimga urding. Ayriliq o'tidan jismimni kul, kulini esa ko'kka sovurding. Baytga diqqat qilinsa, unda bir iboraning ikki shaklda – kul qilding, kulini ko'kka sovurding tarzida berilganini ko'rish mumkin. Bundan ko'zlangan maqsad oshiq vujudining ishqda nafaqat kul bo'lgani, balki uning kulidan ham asar qolmaganligini tasvirlashdir. Mumtoz adabiyotda haqiqiy oshiqning ishqda "yo'q" bo'lishi uning komillik sifatlaridan biri tariqasida baholanadi. Navoiy oshiqning ana shu sifatini berishda xalqona iboradan mahorat bilan foydalangan.

"Mahbub ul-qulub" [3; 2-135-b.] ulug' mutafakkir va buyuk shoir Alisher Navoiyning umri oxirida 906 (1500-1501) yilda yozilgan yirik nasriy asaridir. U muallifning g'oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to'plagan boy tajribasi va xulosalarining yig'indisidir. Asar pand nasihat janri yetakchilik qiladi va odob axloq masalasi bugungi kunda ham insoniyat tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. "Mahbub ul-qulub" o'ziga xos bir nasihatnoma bo'lib, ijtimoiy tabaqa va guruhlarning ta'rifida qimmatli axloqiy-ta'limiy fikrlar ilgari surilgan.

"Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi qismi o'n fasl (bob)dan: tavba, zuhd, tavakkal, qanoat, sabr, tavoze va odob, shar' (shariat), tavajjuh (nazar solish), rizo va ishqdan iborat bo'lib, bulardan ikki bob: tavoze va odob hamda ishq bevosita axloq-odob masalalarini ifodalaydi, qolgan boblar esa din va fatalizmga qaratilib, ularda ham (masalan, qanoat va sabr boblarida) axloq-odobga doir ba'zi o'rinlar bor. Asarning uchinchi qismi kichik-kichik tanbehlardan, hikoyalardan, maqol va hikmatli so'zlardan tashkil topgan.

Navoiy asarlarining katta qismi axloq va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan. U bunday asarlarida xalq orasida keng tarqalgan, og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan kichik ta'limiy hikoyalar – naqlar, maqol va hikmatli so'zlardan goh oddiy, goh analitik, goh sintezlashgan folklorizmlar sifatida unumli foydalanganligi kuzatiladi. Ayniqsa, Navoiy nasriy asarlarining deyarli barchasida xalq ertaklariga xos bo'lgan saj' usuli qo'llangani alohida e'tiborni tortadi.

Alisher Navoiy poetik dahosiga xos badiiy mahorat ushbu asarda qo'llanilgan mumtoz badiiy san'atlarning, xalq og'zaki ijodi durdonalari qatorida g'oyat ko'p va turfa iboralar – frazemalarning mohirona ishlatilishi misolida ham o'zining in'ikosini topgan. Bu lisoniy birliklar asarda muallif g'oyaviy maqsadini yanada yorqinroq, yanada ta'sirchanroq ifodalashga xizmat qilgan. Ularning ko'pchiligi go'zal badiiy san'atlar uyg'unligida asarlarning o'ziga xos jozibadorligini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Ayniqsa, asar g'oyaviy mazmuni unda maqol, matal va aforizmlar bilan birga iboralarning unumli ishlatilishi natijasida yanada ta'sirchan ifodalangan.

“Mahbub ul-qulub”ni o'rganar ekanmiz, unda iboralardan ko'proq foydalanilganligiga amin bo'lamiz. Buning sababini xilma-xil badiiy timsol yaratish, fikrni jozibali va ta'sirchanroq ifodalashda iboralarning uslubiy imkoniyatlari ortiqroq ekanligi bilan izohlash mumkin. Chunki iboralarda fikr obrazli qilib ifodalangan bo'ladi. Asarda xalq iboralari “qalami sinuq”, “g'amin yeguvchi”, “qon to'kmak”, “xoma surmak”, “itlik aylamak”, “kom topmoq”, “g'animat tut”, “ko'ngli buzug'”, “g'urbat chek”, “etagiga ilik urg'on”, “ko'z tutmoq”, “ko'z solma”, “bo'g'zin tormoq”, “quloq tutub”, “jafu tormoq”, “yerga past qilmoq”, “kulini ko'kka sovurmoq”, “ko'z yumub”, “iki yuzlik” shakllarida uchratish mumkin.

“Mahbub ul-qulub”da ham bu frazemalardan mohirona foydalanilgan. Xudparastlar, xudbinlar zikrida aytilgan ushbu tanbehda o'qiyamiz:

*Va do'zaxqa yetmasdin burun ba'zini kuydurdilar va ba'zini so'yurdilar va **kulini ko'kka sovurdilar** va alarning fitnasi o'chirdilar.*

“Ishq zikrida”gi fikrlarda ham bu iboraga murojaat qilingan: *Va har necha zulm qilg'on anga qonmoq yo'q. Soiqaedur, aql-u din **xirmanin kuydurguchi** va sarsaredur alarning **kulin ko'kka sovurguchi**.* Mazmuni: (Ishq) yashindur, aq-lu din xirmonini kuydiradi, u bo'rondur, kuyganlarning kulini ko'kka sovuradi. Keyingi misolda bir yo'la ikkita: ***xirmanin kuydurguchi, kulin ko'kka sovurguchi*** frazemalarining qo'llanishi ishq mazmunida aytilgan gap ma'no-mazmunini yana-da kuchaytirishga xizmat qilgan.

Ulug' shoir asarlarida qo'llangan xalqona iboralardan yana biri “ko'z yumub-ochguncha” birikmasidir. Mazkur ibora “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida” “ko'z ochib-yumguncha” tarzida keltiriladi va “juda qisqa muddatda, tezda” degan ma'noni anglatishi ta'kidlanadi [5; 147]. E'tibor berilsa, mazkur ibora hozirda og'zaki nutqda ham, badiiy asarlarda ham xuddi lug'atdagidek ishlatilmoqda. Masalan: Qish. Ko'z ochib-yumguncha qosh qorayib qoladigan kunlarning biri (R.Fayziy). Holbuki, hazrat Navoiy birgina ibora tarkibidagi so'zning o'rni o'zgarishi natijasida hayotiy mantiq buzilishini juda yaxshi bilgan. Shu bois o'z g'azallarida mazkur iborani “ko'z yumub-ochguncha” tarzida qo'llagan.

*Umr g'aflat uyqusi birla tilarsen, kecha, oh,*

***Ko'z yumub-ochquncha** kimning i'timodi bor anga?*

Yoki:

*Tushdek erur dahrda nokom-u kom,*

***Ko'z yumub-ochquncha** o'tubdur tamom [7; 34-b.].*

Har ikkala baytda pand-nasihati ruhi ustuvor. Bu dahr (dunyo)da istagiga yetgan ham, yetmagan ham “ko‘z yumib-ochquncha” o‘tib ketishi eslatilgan.

“Mahbub ul-qulub”da qo‘llangan frazeologizmlardan yana biri “*ranj tortmoq*” iborasidir. Ilm o‘rganish uchun qancha mashaqqat tortsa-da, lekin ilmiga amal qilmagan fosiqli olimlarni tanqid qilib Navoiy shunday yozadi: *Bir ulkim, ilm o‘rganurga ranj torttiyu amal qilmadi.*

Frazemalarning uslubiy ma‘nosi ikki komponentdan iborat: a) ekspressiv baho bo‘yog‘i — bu komponent frazemaga baholash va boshqa emotsional ottenkalarni yuklaydi; b) ikkinchi komponentni “funktional-uslubiy bo‘yoq” deb nomlash maqsadga muvofiq, chunki bunday deb atash frazemalarning turli funktsional uslublarda qo‘llanilishini ham o‘zida ifoda etadi. Bundan ko‘rinadiki, tilimizdagi har bir frazema ikki xil uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lib, ular bir hodisaning turli tomonlarini ifodalaydi [6; 213-b.]. Ba‘zan frazemalarning emotsional-baho bo‘yog‘i lug‘atlarda ularni izohlash tarkibiga kiritiladi (bu holat frazemaning uzual, lisoniy xususiyati bilan ham bog‘liq). Masalan, A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da “qazo qilmoq” iborasi oddiy so‘zlashuvda, asosan, katta yoshdagi kishilarga nisbatan va vafot etish vaqtlarida, uni boshqalarga xabar qilishda qo‘llanishi ta‘kidlangan [1; 242-243-b.]. “Nobud bo‘lmoq” iborasi ham qo‘llanish jihatidan oddiy so‘zlashuvga xos, lekin u, asosan, go‘daklarga nisbatan qo‘llanadi. Endi bu ikki frazemaning O‘TIL va O‘TIL-5 dagi izohlari bilan tanishaylik: “Qazo qilmoq – o‘lmoq, vafot etmoq” [8; 536-b.; O‘TIL-5, 210-b.]; “Nobud bo‘lmoq” – “halok bo‘lmoq, o‘lmoq” [8; I, 505; O‘TIL-5, 3-45-b.]. Ko‘rinadiki, O‘TIL va O‘TIL-5da har ikkala ibora izohida ularning qo‘llanish xususiyati, uslubiy xoslanishi ochib berilmagan. Umuman olganda, so‘zda bo‘lgani singari frazemalarda ham mantiqiy nominativ ma‘no bilan birga ekspressiv-uslubiy bo‘yoqdorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Iboralarning sinonimiyaga boyligi ulardan foydalanishda katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi. Chunki bir sinonimik uyani tashkil qiluvchi iboralar o‘zaro obrazlilik darajasi jihatidan farqlanadi. Masalan, quyidagi baytda qo‘llangan *ko‘nglakin chok aylamish, yaqo chok qilsa, ko‘ksi chok o‘lmay* frazemalari ayni bir ma‘noni anglatadi-da, ammo obrazlilik darajasiga ko‘ra farq qiladi. Ushbu iboralarning so‘nggisi ma‘no darajasining kuchliligi, obrazlilik va ifodaliligi jihatidan ajralib turadi. Iboralar ma‘nosidagi ana shu nozik jihatlari ham Navoiy e‘tiboridan chetda qolmagan va shoir baytda iboralarni obrazlilik darajasiga ko‘ra ketma-ket qo‘llagan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur sinonimik uyada *ko‘ksi chok o‘lmoq* iborasida obrazlilik darajasi kuchli:

*Ko‘nglakin chok aylamish anduhdin gul, chun yaqo*

*Chok qilsa naylasun bulbulning o‘lmay ko‘ksi chok* (G‘S).

Mazkur baytda o‘zaro ma‘nodosh iboralarni qo‘llash oshiq holatini ta‘kidlash uchun xizmat qilgan.

A.Nurmonov va R.Rasulovlarning “O‘zbek tili jadvallarda” risolasida frazeologizmlar quyidagi 4 semantik guruhga birlashishi ko‘rsatganlar:

1. Kishilarning ruhiy holatini ifodalovchi holat frazeologizmlari: *og‘zi ochilib qoldi, ensasi qotib qoldi* kabi.

2. Jismoniy ta‘sir, harakat va boshqa ma‘nolarni ifodalovchi harakat frazeologizmlari: *yuragini chiqarmoq.*

3. Kishining jismoniy va ruhiy sifatini ifodalovchi belgi frazeologizmlari: *qari tovuq, ilonning yog‘ini yalagan.*

4. Narsa-buyumlarning miqdor belgisini ifodalovchi miqdor frazeologizmlari: *bir etak bola, xamir uchidan patir kabi* [4; 27].

“Mahbub ul-qulub”da yuqoridagi semantik guruhga xos frazemalar ko‘p. Masalan, *Bir ulkim, ilm o‘rganurga ranj torttiyu amal qilmadi*.

*Tortmoq* leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 18 ma’noli polisemem leksema sifatida tasvirlangan. Bu fe’l leksema ko‘pchilik sememalarida o‘timli bo‘lib, vositasiz (o‘rni bilan vositali) to‘ldiruvchini boshqaradi. Hushyor *tortmoq* frazemasida esa bu fe’l leksema to‘ldiruvchini boshqarmaydigan o‘timsiz sememasi bilan qatnashadi; ushbu semema izohli lug‘atda ham berilgan va “biror tomonga qarab o‘zgarib, tegishli xususiyat kasb etmoq” deb ta’riflangan, asli “(ma’lum belgi-xususiyatli) holatga o‘tmoq” deb ta’riflash to‘g‘riroq bo‘lar edi. Ko‘rinadiki, fe’l frazema tarkibida qatnashadigan fe’l a’zo polisemem bo‘lsa, ushbu frazema tarkibida qaysi sememasi bilan qatnashayotganini aniqlash va shu asosda fikr yuritish lozim.

Birgina “Mahbub ul-qulub”dan tanlab olingan misollardan ko‘rinib turibdiki, Navoiy she’riyatida bo‘lgani kabi ushbu nasriy asarda ham iboralardan keng foydalanilgan. Unda xalq og‘zaki ijodining shaklan ixcham, mazmunan ta’sirchan unsurlari bo‘lgan frazemalarning rang-barang ifoda usullarini uchratish mumkin. Shuni aytish joizki, asrlar davomida Navoiy asarlarining xalqchilligini ta’minlagan jihatlardan biri ham ana shunda bo‘lsa kerak. Zero, ijod ahli so‘zni xalqdan oladi, unga badiiy sayqal berib yana xalqqa taqdim etadi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
2. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-васат. – Т.: Фан, 1990.
3. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. XX жилдлик. XIV жилд. – Т.: Фан, 1998.
4. Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадваллари. – Т., 1993.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи. 1976.
6. Рашидова У. Ўзбек тилидаги фраземаларнинг услубий маъноси ва унинг компонентлари ҳақида./ НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2020 йил 4-сон.
7. Тоғаев Т. Иликтин ихтиёринг бермагил... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2011 й., 13 май.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, Биринчи жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5/6 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).